

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-184-1

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Salimova Hilola

SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-TAQIR TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA OZIQ
MODDALAR ZARHIRASI (G'ijduvon tumani misolida)5-10

IQTISODIYOT FANLARI

Kadirova Shaxnoza

YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARNING
SALOHIYAT IMKONIYATLARINI BOSHQARISH 11-14

YURIDIK FANLARI

Rahmonov Abbos

ISTE'MOLCHILARGA YETKAZILGAN ZARAR UCHUN FUQAROLIK-HUQUQIY
JAVOBGARLIKNING XALQARO TAJRIBADAGI SHAKLLARI VA O'ZBEKISTON QONUNCHILIGI
BILAN SOLISHTIRMA TAHLILI 15-18

Ernazarova Feruza

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA
IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI 19-22

Donayeva Aziza

"ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA SUN'IY INTELEKTNI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH" 23-29

Sobirov Temur

AUTSORSING, AUTSTAFFING VA XODIMNI BOSHQA ISH BERUVCHIGA VAQTINCHA XIZMAT
SAFARIGA YUBORISH: HUQUQIY ASOSLAR,
TA'RIFLAR VA O'ZBEKISTONDAGI AMALIYOT 30-34

Тогаймуродова Камола

ИСТОРИКО-ПРАВОВОЕ РАЗВИТИЕ ИНСТИТУТОВ НОТАРИАТА И ГОСУДАРСТВЕННОЙ
РЕГИСТРАЦИИ СДЕЛОК 35-38

Бобоева Муслима

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОСПОСОБНОСТИ И ДЕЕСПОСОБНОСТИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ 39-42

Tuytmyev Asadbek

MEHNAT NIZOLARIDA DA'VO MUDDATLARI MILLIY VA XORIJIY QONUNCHILIK 43-46

Nizomova Khosiyatkhon

PROHIBITION OF DISCRIMINATION IN NATIONAL LABOR LAW 47-49

Qadamov Javohirbek

RAQAMLI MAKONDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA
QILISHNING HUQUQIY JIHATLARI 50-55

Ergashova Mamura

MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISHDA SUD TARTIBINING USTUVORLIGI: QONUNCHILIK
NAZARIYASI VA SUD AMALIYOTI 56-60

Isaqulova Elmira

SMART-KONTRAKTLAR TERMINOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA AHAMIYATI 61-66

<i>Амирова Умида</i> ПРОБЛЕМЫ ПРИОБРЕТЕНИЯ СТАТУСА АДВОКАТА ИНОСТРАННЫМИ ГРАЖДАНАМИ	67-70
<i>Xursanov Shamsiddin</i> XALQARO SAVDODA BARQAROR RIVOJLANISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR	71-74
<i>Fayziyev Hayriddin, Zokirkonov Zoxidjon</i> MEHNAT MUNOSABATLARIDA ATTESTATSIYA VA UNING HUQUQIY ANAMIYATI	75-78
<i>Исомухамедова Мадина</i> ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ С ПОМОЩЬЮ ТРЕТЬЕГО ЛИЦА: МЕДИАЦИЯ, ПРИМИРЕНИЕ И АРБИТРАЖ КАК ПРОЦЕСС, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ПРЕКРАЩЕНИЮ КОНФЛИКТОВ	79-83
<i>Абдурахмонов Асадбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В СИСТЕМЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ	84-87
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Арипджанова Фарзона</i> ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ И ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ СД 2 ТИПА С МЕТАБОЛИЧЕСКИ АССОЦИИРОВАННОЙ ЖИРОВОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПЕЧЕНИ (МАЖБП)	88-92

SHAXSNI ERKIN RIVOJLANTIRISH HUQUQI: O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASIDA IFODALANISHI VA XALQARO HUQUQIY NORMALAR BILAN UYG'UNLIGI

Ernazarova Feruza Ravshanovna

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: f.ernazarova1999@mail.ru

Tel: +998 90 878 19 99

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi har bir shaxsning o'z shaxsini erkin rivojlantirish huquqining konstitutsiyaviy mohiyati va xalqaro-huquqiy normalardagi o'rni tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalarida ushbu huquqning mazmuni ochib berilgan va uni BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Yevropa Inson huquqlari konvensiyasidagi normalar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali huquqiy uyg'unlik darajasi baholangan. Shuningdek, xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida ushbu huquqning ifodalanishi o'rganilib, O'zbekiston qonunchiligi va amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: shaxs erkinligi, konstitutsiyaviy huquq, o'zini rivojlantirish, inson huquqlari, xalqaro huquq, BMT deklaratsiyasi, qiyosiy tahlil.

THE RIGHT TO FREE PERSONAL DEVELOPMENT: ITS REFLECTION IN THE CONSTITUTION OF UZBEKISTAN AND HARMONIZATION WITH INTERNATIONAL LEGAL STANDARDS

Ernazarova Feruza Ravshanovna

Master's Student, Tashkent State University of Law

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This thesis analyzes the constitutional essence of every person's right to free personal development and its place within international legal norms. Based on the provisions of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the content of this right is explained and its level of legal compatibility is evaluated through a comparative analysis with the norms found in the UN Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights, and the European Convention on Human Rights. Furthermore, the expression of this right in the constitutions of foreign states is studied, and proposals are put forward for the improvement of legislation and practice in Uzbekistan.

Keywords: personal freedom, constitutional right, self-development, human rights, international law, UN Declaration, comparative analysis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-184-1/uzb-4>

Inson erkinligi har qanday demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati poydevorining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotining bugungi bosqichida shaxsni ijtimoiy-siyosiy hayotning markaziy subyekti sifatida e'tirof etish, uning erkinligi va daxlsizligini eng oliy qadriyat sifatida tan olish butun dunyo bo'yicha huquqiy taraqqiyotning ustuvor mezoniga aylangan. Ayniqsa, har bir insonning o'z shaxsini erkin rivojlantirish huquqi fundamental inson huquqlarining ajralmas bo'lagi sifatida e'tirof etilib, bu huquq orqali boshqa ko'plab shaxsiy, fuqarolik, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ro'yobga chiqarish imkoniyati yaratiladi [1; B.25.]. Shaxsning o'zini erkin rivojlantirish huquqi nafaqat biologik yoki ijtimoiy

mavjudlik bilan bog'liq erkin harakat qilish imkoniyati, balki uning shaxsan o'z qarorlarini qabul qilish, intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, o'zini jamiyatda mustaqil va teng a'zo sifatida shakllantirish huquqi sifatida qaraladi. Bu huquqning mohiyatida inson qadriyatining oliyligi, uning sha'ni, qadr-qimmati va erkin irodasini tan olish tamoyillari mujassam. Shu sababli, bu huquq demokratik jamiyatda nafaqat erkinlik kafolati, balki shaxsning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi [2; B.36.]. Shu jihatdan qaralganda, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida har bir insonning o'z shaxsini erkin rivojlantirish huquqining 21-moddada alohida qayd etilishi ushbu g'oyaning milliy huquqiy tizimdagi ustuvor ahamiyatini anglatadi [3; 21-mod.]. Bu huquqning konstitutsiyaviy darajada tan olinishi inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini huquqiy jihatdan mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

2022–2023-yillardagi Konstitutsiyaviy islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan tahririda inson huquqlari va erkinliklari yanada aniqroq va kengroq yoritildi. Mazkur islohotlar ichida shaxsning erkin rivojlanish huquqi ilk bor mustaqil konstitutsiyaviy norma sifatida tan olinib, 21-modda orqali mustahkamlandi. Bu norma fuqarolarning o'z intellektual, ijtimoiy va ma'naviy salohiyatini erkin ro'yobga chiqarishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va o'zini takomillashtirishi uchun konstitutsiyaviy asos bo'lib xizmat qiladi [3; 21-mod.].

Ushbu modda bir necha asosiy g'oyani o'zida mujassam etadi:

Birinchidan, inson faqat biologik mavjudot emas, balki o'zligini anglaydigan va erkin qaror qabul qila oladigan ijtimoiy mavjudot sifatida tan olinadi. Shu bois, uning o'z imkoniyatlarini ochib borishi, intellektual va ruhiy kamoloti davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi shart.

Ikkinchidan, erkin rivojlanish huquqi uni amalga oshirish uchun davlat tomonidan real imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Bu esa davlatning faol ijtimoiy siyosati orqali ta'minlanadi.

Uchinchidan, bu huquq o'zboshimchalik bilan cheklanishi mumkin emas. Unda aniq ko'rsatib o'tilgan: bu huquqni faqat konstitutsiyaviy tuzum, jamoat xavfsizligi, boshqa shaxslarning huquqlari va sog'ligi himoyasi maqsadida va faqat qonun doirasida cheklash mumkin [1; 21-mod.].

Erkin rivojlanish huquqi Konstitutsiyaning boshqa qator normalari bilan uzviy aloqada va o'zaro bog'liq. Masalan, 13-moddada insonni oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi: "Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" [3; 13-mod.]. Ushbu tamoyil erkin rivojlanish huquqining mafkuraviy asosidir. Insonni oliy qadriyat deb tan olgan davlat, tabiiy ravishda, uning o'zini anglash, shakllantirish va o'z ustida ishlash imkonini ham eng ustuvor vazifasi deb hisoblaydi. Bundan tashqari, 14-moddada davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishini belgilaydi – u inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak [3; 14-mod.]. Demak, shaxsiy rivojlanish faqat individual emas, balki ijtimoiy qadriyatdir. Davlatning maqsadi — shaxslar orqali jamiyatni barqaror rivojlantirish. Shuningdek, 19-moddada esa bu norma inson huquqlari va erkinliklari xalqaro huquq normalariga asoslanishini e'tirof etadi va barcha fuqarolarning tengligini ta'minlaydi [3; 19-mod.]. Bunda erkin rivojlanish huquqi uchun muhim mezon — inklyuzivlik kafolatlanadi. Ya'ni bu huquq har kimga, irqidan, jinsidan, tilidan qat'i nazar, bir xil darajada taalluqlidir.

Shuningdek, 20-moddada ham inson huquqlari daxlsizligini kafolatlanadi va sud qarorisiz ularni cheklash mumkin emasligini ta'kidlanadi [1; 20-mod.]. Erkin rivojlanish uchun shart — inson erkinligini hech kim noqonuniy ravishda cheklamasligi kerak. Bunda “bevosita amal qiladi” prinsipi konstitutsiyaviy huquqni real hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkin rivojlanish huquqi alohida modda (21-modda) sifatida qayd etilishi bilan birga, boshqa konstitutsiyaviy prinsiplar bilan murakkab, ammo izchil tizim hosil qiladi. Bu huquq davlatning ijtimoiy siyosatini belgilab beruvchi markaziy qadriyatga aylangan. Shu tariqa, fuqarolarning salohiyatini ro'yobga chiqarish — davlat uchun maqsad, fuqarolar uchun esa huquq sifatida mustahkamlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida mustahkamlangan “shaxsning erkin rivojlanish huquqi” xalqaro huquqda ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u universal va mintaqaviy darajadagi inson huquqlari hujjatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Birinchiidan, 1948-yil qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-moddasida “Barcha insonlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng holda tug'iladi. Ular aql va vijdonga egadirlar va bir-birlariga birodarlarcha munosabatda bo'lishlari kerak” deb ta'kidlangan [4; 1-mod.]. Bu norma erkin rivojlanish g'oyasining falsafiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, 22-moddada “har bir inson jamiyat a'zosi sifatida ijtimoiy ta'minot huquqiga ega” deb ko'rsatilgan bo'lib, bu ham shaxsning har tomonlama o'sishi uchun ijtimoiy kafolatlar zarurligini anglatadi [4; 22-mod.].

Ikkinchiidan, 1966-yilda qabul qilingan Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 6-moddasida shaxsning mehnat huquqi, ya'ni “o'z yashash vositalarini erkin tanlagan mehnat orqali ta'minlash” huquqi tan olingan. Bu modda davlatlardan fuqarolarni kasbiy tayyorlash, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy siyosat orqali shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga imkon yaratishni talab qiladi [5; 6-mod.]. 13-moddada esa har kimning ta'lim olish huquqi belgilangan bo'lib, u shaxsiy rivojlanishning muhim tayanchi sifatida ko'riladi [5; 13-mod.].

Uchinchiidan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 17-moddasi shaxsiy daxlsizlik va sha'ni himoyasini kafolatlaydi [6; 17-mod.], 19-moddasi esa fikr erkinligi va uni erkin ifoda etish huquqini belgilaydi. Bu huquqlar shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan erkin axborot muhitini shakllantiradi [6; 19-mod.].

To'rtinchiidan, Yevropa Inson huquqlari konvensiyasining 8-moddasi “shaxsiy va oilaviy hayotga hurmat” huquqini belgilaydi. Ushbu huquq insonning o'zligini shakllantirish va rivojlantirish uchun himoya zonasi yaratadi. Bu konvensiya a'zolikning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatsa-da, undagi prinsiplar umumiy xalqaro huquq tamoyillari bilan hamohangdir [7; 8-mod.]. Mazkur xalqaro me'yorlar O'zbekiston Konstitutsiyasidagi erkin rivojlanish huquqini nafaqat qo'llab-quvvatlaydi, balki uni yanada boyitib, xalqaro yondashuv bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Har bir insonning o'z shaxsini erkin rivojlantirish huquqi nazariy jihatdan muhim va qadrlidir, biroq uning amaliy tatbiqida qator dolzarb muammolar mavjud. Ulardan biri — bu huquqning amalga oshirishini ta'minlovchi infratuzilmaviy va ijtimoiy resurslarning yetarli emasligidir. Masalan, ta'lim, axborotga erkin kirish, sog'liqni saqlash kabi sohalarda teng imkoniyatlar ta'minlanmasligi, shaxsiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarga olib keladi. Bundan

tashqari, ushbu huquq boshqa konstitutsiyaviy huquqlar bilan muvozanatda bo'lishi zarur. Chunki shaxs o'zini erkin rivojlantirish jarayonida boshqa shaxslarning huquqlariga, jamiyat axloqiga yoki davlat xavfsizligiga tahdid solmasligi kerak. Bu esa normativ va amaliy jihatdan chegaralarni aniq belgilashni, huquqlarni balanslashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Yana bir dolzarb masala — bu huquqni kafolatlovchi huquqiy mexanizmlarning kuchsizligi yoki ularning to'liq ishlamasligidir. Sud amaliyotida bu huquqning buzilishi bilan bog'liq da'volarning kamligi, aholining huquqiy ong va madaniyatining pastligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Rivojlanayotgan demokratik jamiyatlarda aynan shunday huquqlar eng ko'p e'tiborni talab qiladi. Shuningdek, siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar fonida davlat organlarining ushbu huquqni ta'minlashdagi roli va javobgarligi muhokama markazida turishi kerak. Erkin rivojlanish huquqi deklarativ qoidaga aylanib qolmasligi uchun u bilan bog'liq majburiyatlar, resurslar va siyosiy irodalar amalda uyg'un ishlashi zarur.

Xulosalaydigan bo'lsak, insonning o'z shaxsini erkin rivojlantirish huquqi demokratik jamiyatda nafaqat asosiy konstitutsiyaviy tamoyil, balki barcha boshqa huquq va erkinliklarning poydevoridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan tahririda bu huquqning mustaqil modda sifatida ifodalanishi milliy huquqiy tizimda inson qadriyatlarini ustuvor deb e'tirof etishning yorqin ifodasidir. Shu bilan birga, bu huquq xalqaro me'yorlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni milliy darajada uyg'unlashtirish davlatning inson huquqlarini ta'minlashdagi jiddiy yondashuvini ko'rsatadi. Biroq amaliyotda bu huquqni to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun faqat huquqiy normalarning mavjudligi yetarli emas — zarur infratuzilma, huquqiy madaniyat, siyosiy irodaning mavjudligi va sud himoyasining ishonchligi ham ta'minlanishi lozim. Shu bois, shaxsning erkin rivojlanish huquqi kelgusi yillarda ham davlat siyosatining, qonunchilik tashabbuslari va huquqni qo'llash amaliyotining markazida bo'lishi kerak. Bu — inson salohiyatining ochilishi va jamiyat taraqqiyotining asosiy garovidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sen, A. Development as Freedom. – New York: Alfred A. Knopf, 1999. – 384 b.
2. Rawls, J. A Theory of Justice. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1971. – 560 b.
3. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. Universal Declaration of Human Rights (1948). United Nations General Assembly. <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
5. International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. United Nations, 1966. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-economic-social-and-cultural-rights>
6. International Covenant on Civil and Political Rights. United Nations, 1966. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights>
7. European Convention on Human Rights. Council of Europe, 1950. https://www.echr.coe.int/documents/convention_eng.pdf

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 13-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
– Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 93 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 13-iyun

ISBN 978-9910-09-184-1

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.